

Date: 25th January-2026

IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYANING PEDAGOGIK TA'LIMDAGI O'RNI

Maxmudov Sobitjon Abdurashid o'g'li

Osiyo Xalqaro Universitetida magistr

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning o'rni, mazmuni va ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi, ta'lim sifati va tarbiya samaradorligiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogning madaniy ong, tolerantlik, kommunikativ madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatleri zamonaviy ta'lim sharoitida muhim kompetensiyalar sifatida asoslab berilgan. Maqolada ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari sifatida o'quv dasturlari mazmuni, interfaol ta'lim metodlari, pedagogik amaliyot, madaniy-ma'rifiy tadbirlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilg'or pedagogik g'oyalar va zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida oliy pedagogik ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish va ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy kompetensiya, pedagogik ta'lim, kasbiy kompetensiya, madaniy ong, tolerantlik, kommunikativ madaniyat, tarbiya jarayoni, interfaol ta'lim metodlari, pedagogik amaliyot, madaniyatlararo muloqot, raqamli madaniyat.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya pedagogning kasbiy shakllanishi va samarali faoliyat yuritishida muhim o'rin tutadi. Pedagog o'z faoliyatida nafaqat o'quvchilarni bilim bilan ta'minlaydi, balki ular bilan doimiy muloqotda bo'lish, ijtimoiy jarayonlarga moslashish va madaniy muhitga yo'naltirish vazifalarini ham bajaradi. Shu bois o'qituvchining jamiyat hayotini anglay olishi, turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot qila bilishi, madaniy qadriyatlarni tushunishi va to'g'ri yetkazishi uning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim ko'rsatkichdir. Pedagogning madaniy muhitni chuqur idrok eta bilishi dars jarayonida o'quvchilar bilan psixologik jihatdan qulay muloqot o'rnatishiga, ularning yosh xususiyatlari va individual tajribasini inobatga olgan holda ish olib borishiga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik faoliyatda o'qituvchining madaniy ongi, tolerantlik darajasi va kommunikativ madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayoniga turli millat, diniy qarash va madaniy tajribaga ega o'quvchilar jalb etilayotgan bir vaqtda o'qituvchining bag'rikeng, hurmatli va madaniyatlararo farqlarni to'g'ri qabul qila oladigan bo'lishi zarur. Tolerantlik pedagogning o'quvchi shaxsiga e'tibor bilan yondashishiga, har bir o'quvchining individual qadr-qimmatini tan olishiga va ular bilan sog'lom o'zaro munosabat o'rnatishiga imkon yaratadi. Kommunikativ madaniyat esa o'qituvchining o'z fikrini ravon yetkazish, tushunarli



Date: 25th January-2026

muloqot olib borish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish kabi kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi³⁶.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning rivojlanganligi ta'lim sifati va tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday kompetensiyaga ega pedagog dars jarayonini shunchaki bilim berish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, madaniy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilishni o'rganishi uchun muhim maydon sifatida tashkil eta oladi. Shu tariqa o'qituvchi o'quvchilarni jamiyatga moslashgan, madaniy saviyali, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya pedagogga o'quv jarayonini uyg'un, mazmunli va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan tarzda olib borish imkonini yaratadi, bu esa ta'limning umumiy samaradorligini oshiradi³⁷.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning pedagog shaxsida shakllanishi maxsus pedagogik mexanizmlar, o'quv jarayoni mazmuni va faol ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanishi bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi pedagoglarni nafaqat kasbiy bilimga ega mutaxassis sifatida, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk, mas'uliyatli shaxs sifatida tayyorlashni maqsad qiladi. Shu bois mazkur kompetensiyaning shakllanish mexanizmlari ko'p qirrali pedagogik jarayonni qamrab oladi.

Pedagogik ta'limning asosiy mexanizmlaridan biri o'quv dasturlarining mazmuni orqali ijtimoiy va madaniy bilimlarni tizimli ravishda o'rgatishdir. Pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar talabalarga jamiyatning tuzilishi, madaniy qadriyatlarning shakllanishi, insonning ijtimoiy muhitga moslashuvi kabi jarayonlar haqida nazariy bilim beradi. Vygotskiy ta'kidlaganidek, shaxsning bilish jarayoni ijtimoiy faoliyat bilan uzviy bog'liq, shuning uchun pedagog o'z faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi uchun shu bilimlar zarurdir³⁸.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning shakllantirishda interfaol ta'lim metodlari ham katta ahamiyatga ega. Munozara, debat, "aqliy hujum", rolli o'yinlar, trening mashg'ulotlari, keys-stadi kabi metodlar talabalarni faol fikrlashga, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishga va ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Dewey ta'kidlaganidek, ta'lim jarayoni faol tajriba asosida tashkil etilganda shaxsning ijtimoiy ko'nikmalari yanada samarali rivojlanadi. Shunday qilib, interfaol yondashuvlar talabaning nafaqat bilim, balki muloqot, hamkorlik, madaniy farqlarni tushunish kabi sifatlarini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning shakllantiruvchi muhim mexanizmlardan biri amaliy faoliyatdir. Pedagogik amaliyot, maktabda kuzatuv ishlari, tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish jarayonlari talabalarning real ijtimoiy muhitda faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

³⁶ Kramsch, Claire. Culture in Language Teaching. Oxford University Press, 1993, 66–78. UNESCO. Intercultural Competence Development in Education. Paris: UNESCO Publishing, 2015, 14–21.

³⁷ G'afforova, G. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish omillari. Toshkent: TDPU, 2020, 52–60. Sharipov, F. Kompetensiyaviy yondashuv mohiyati. Ma'rifat, 2020, 12–16.

³⁸ Vygotsky, Lev. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978, 86–91. Karimova, V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU, 2016, 62–69.



Date: 25th January-2026

Talaba maktab hayotini o'rganar ekan, o'quvchilar bilan muloqot qilish, jamoani tashkil etish, madaniy-tarbiyaviy ishlarni o'tkazish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu jarayon Bruner tomonidan ilgari surilgan "faol ishtirok orqali o'rganish" tamoyilining amaliy ko'rinishidir.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar ham mazkur kompetensiyani mustahkamlovchi muhim omildir. Oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan madaniy festivallar, uchrashuvlar, tarixiy obidalarni o'rganish, teatrlarga tashriflar, milliy qadriyatlar bilan tanishuv talabalar madaniy ongini kengaytiradi. Bu jarayon UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo ta'lim tamoyillariga muvofiq bo'lib, shaxsning madaniy xilma-xillikka hurmat va bag'rikenglik bilan yondashishini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ham ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning zamonaviy mexanizmlaridan biridir. Raqamli madaniyatni shakllantirish, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, global madaniy jarayonlarni kuzatish kabi ko'nikmalar talabaning dunyoqarashini kengaytiradi va uni madaniyatlararo kommunikatsiyaga tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarida media savodxonlik va raqamli madaniyatni shakllantirish pedagogning zamonaviy kompetensiyalari qatorida sanaladi³⁹.

Oliy pedagogik ta'lim dasturlari zamonaviy me'yoriy talablarga muvofiq ravishda o'qituvchi shaxsida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu kompetensiyaning ta'lim dasturlarida aks etishi, avvalo, pedagogning kasbiy faoliyatida madaniy ong, ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va fuqarolik pozitsiyasini namoyon eta olishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilayotganini ko'rsatadi. Ta'lim mazmunining yangilanish jarayoni bu kompetensiyaning barcha tarkibiy elementlari o'quv jarayonida uzviy ravishda o'z ifodasini topishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning Davlat ta'lim standartlarida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ijtimoiy faol fuqarolik, madaniy savodxonlik, muloqot madaniyati va mas'uliyatlilik asosiy kompetensiyalar qatorida belgilangan⁴⁰. Bu esa ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning oliy ta'lim tizimida muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Shuningdek, pedagogik ta'lim dasturlarida milliy qadriyatlar, madaniy meros, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarbiyaviy faoliyat metodikasi kabi fanlarning mavjudligi talabalarda madaniy ong va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan kredit-modul tizimi ham ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy va madaniy masalalarni tahlil qilish, jamoa bilan ishlash, turli madaniy loyihalarda ishtirok etish orqali o'z kompetensiyasini boyitadi. Bu jarayon

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'lim" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-3832-son Qarori, 2018.

Shamshiddinova, N. Ta'limda innovatsion jarayonlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, 91-98.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni, 2019. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637, 2020.



Date: 25th January-2026

Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim nazariyasiga uyg'un bo'lib, talabani ijtimoiy faol muhitda shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi⁴¹.

Pedagogik ta'lim dasturlari faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan faol ta'lim metodlarini ham o'z ichiga oladi. Amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, loyiha faoliyati, treninglar va seminarlar talabalarning madaniy merosni o'rganish, jamoaviy ishlarda ishtirok etish, madaniy tadbirlarni tashkil qilish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa Brunerning faol ishtirok orqali o'rganish tamoyiliga asoslanadi⁴².

Shuningdek, oliy ta'lim dasturlarida raqamli madaniyat va media savodxonlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Global axborot maydoni bilan bog'liq jarayonlarni tushunish, madaniy xilma-xillikka ochiq bo'lish, ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyatli kommunikatsiya yurita olish kabi ko'nikmalar pedagog shaxsining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini zamonaviy talablarga mos shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlarda ham o'z aksini topgan.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyatida amaliy jihatdan namoyon bo'ladigan sifatlar majmuasi bo'lib, u o'qituvchining dars jarayonini tashkil etishi, o'quvchilar bilan muloqot o'rnatishi, tarbiyaviy ishlarni olib borishi hamda ta'lim muhitida ijobiy psixologik sharoit yaratish kabi faoliyat turlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur kompetensiyaning amaliy ko'rinishlari pedagogning real ta'lim amaliyotida qanday faoliyat yuritishini ko'rsatib beradi.

Pedagogning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi, eng avvalo, dars jarayonini madaniy kontekstga mos ravishda tashkil eta olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, oilaviy va madaniy muhitini hisobga olgan holda o'quv materialini yetkazadi. Madaniy meros, tarixiy an'analar, milliy qadriyatlar asosida dars mazmunini boyitish o'quvchilarda xalqning madaniyati va milliy o'ziga xosligiga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Bu jarayon pedagogning nafaqat bilim, balki madaniy sezgirlik darajasiga ega ekanini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning amaliy namoyon bo'lishi pedagogning o'quvchilar bilan muloqot jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining muloqot madaniyati, o'z fikrini ravon ifoda eta olishi, tinglash madaniyatiga amal qilishi va o'quvchilarni rag'batlantira olish qobiliyati ijobiy psixologik muhit yaratadi. Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ular o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hymesning kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi nafaqat til qoidalarini bilishi, balki ijtimoiy vaziyatga mos muloqot shaklini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizom, 2021. OECD. Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Paris, 2003, 97–104.

⁴² Dewey, John. Experience and Education. New York: Kappa Delta Pi, 1938, 39–45. Juraev, R. Pedagogik kompetensiya va innovatsion ta'lim. Toshkent, 2017, 81–87.

Date: 25th January-2026

Tarbiyaviy faoliyatda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning amaliy ko‘rinishlari yanada kengroq namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi, ular orasida bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, hamkorlik kabi sifatlarni rivojlantiradi⁴³. Pedagogning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayoni Dewey ta’kidlagan faol tajriba tamoyiliga asoslanadi, ya’ni o‘quvchilar amaliy faoliyat orqali ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradilar. Shu bois pedagog madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish, jamoaviy loyihalarda o‘quvchilarni ishtirok ettirish orqali ularda madaniy ong va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kramersch, C. Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press, 1993. B. 66–78.
2. UNESCO. Intercultural Competence Development in Education. Paris: UNESCO Publishing, 2015. B. 14–21.
3. G‘afforova, G. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish omillari. Toshkent: TDPU, 2020. B. 52–60.
4. Sharipov, F. Kompetensiyaviy yondashuv mohiyati. Ma’rifat gazetasi, 2020. B. 12–16.
5. Vygotsky, L. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978. B. 86–91.
6. Karimova, V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU, 2016. B. 62–69.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim” konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PQ–3832-son Qarori. 2018.
8. Shamshiddinova, N. Ta’limda innovatsion jarayonlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. B. 91–98.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-son Farmoni. 2019.
10. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. O‘RQ–637. 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risidagi Nizom. 2021.
12. OECD. Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Paris, 2003. B. 97–104.
13. Dewey, J. Experience and Education. New York: Kappa Delta Pi, 1938. B. 39–45.
14. Juraev, R. Pedagogik kompetensiya va innovatsion ta’lim. Toshkent, 2017. B. 81–87.
15. Saidov, A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 2021. B. 102–108.
16. Панжизода Х. Ситуация насилия и притеснения в семье на примере Узбекистана. Социология и право". ISSN 2219-6242 (Print) . №3. Москва. Социология и право. 2025. Т. 17. No 3. – С. – 336-344.

⁴³ Saidov, A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 2021, 102–108.